
Umra safari: Mehr-oqibat va saxovat oyida qalblarga shodlik ulashilmoqda

Davlatimiz rahbarining Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan Umra ziyoratiga jo'natish tashabbusi ilgari surilgan edi. Farg'ona shahridan ham bir guruh yurtdoshlarimiz Umra ziyoratiga yuborildi.

Hamshaharlarimiz kuni kecha Umra ziyoratini o'tab qaytdilar. Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova va hokimlik vakillari ziyoratchilarni yo'qladilar.

-Ezgu niyatlarimiz, orzularimizning amalga oshishida Davlatimiz rahbari bizlarni qo'llab-quvvatlamodalar, - deydi "Oybek" mahallasida yashovchi Muhabbatxon Azizova.- Ko'nglida Xaj safariga borish niyati bo'lgan, ammo mablag'i yo'q bo'lgan fuqarolar, ayniqsa O'zbekiston ayollari bu e'tibordan va ko'rsatilgan g'amxo'rlikdan behad mamnun bo'ldik.

Mazkur tashabbus davomida Farg'ona shahridan jami 8 nafar fuqarolar Umra safariga borgan bo'lsalar, ularning 6 nafari "Ayollar daftari"da turgan xotin-qizlardir.

2023-04-06 11:16:17